



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLIGIDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH METODIKASI

Kuralbaeva Munisa Gafurjon qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z turkumlarini o‘rgatish. Hamjihatlikda ishlash, og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish, erkin fikrlay olish uchun xizmat qiladi. Ushbu maqola ot so‘z turkumini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish metodikasi haqida.*

Kalit so‘zlar: *Ot so‘z turkumi, interfaol medotlar, otning leksik ma‘nolari, komil inson.*

Ona tili metodik fan sifatida ona tili o‘qitish metodikasi boshlang‘ich ta‘lim standartlarini belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya‘ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda bayon qilish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olishi, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.

Boshlang‘ich sinfda ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, fikri, xarakteri, tasavvur va tushunchasi, idrok etish qobiliyati, irodasi, qiziqishi, faolligi kabi ruhiy holatlarni o‘rganishni taqozo etadi. Boshlang‘ich sinflarda berilayotgan bilimlarning barchasi o‘quvchilar uchun oson va tushunarli bo‘lishi lozim. Chunki boshlang‘ich tushuncha boshlang‘ich sinflardan boshlab to‘planib boriladi. O‘quvchilarga o‘rgatilsyotgan bilimlar o‘qituvchi tomonidan aniq faktlarga tayangan holda, lo‘nda, qiziqarli, tushunish oson yo‘llar bilan o‘rgatilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "... intellektual va madaniy salohiyatining qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q" ¹–deya ta‘kidlagan edi.

Shuning uchun ta‘lim tarbiya berayotgan o‘qituvchilar komil insonni tarbiyalashga ahamiyat qaratish kerak. Ona tili darslarida har bir berilayotgan ma‘lumotlar, o‘zlashtirilayotgan mavzular yuzasidan tahlil qilish zarur. Shunga ko‘ra boshlang‘ich sinf ona tili darsligida o‘quvchilar so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish) bilan umumiy tanishtirilganidan so‘ng har bir turkum alohida grammatik jihatdan tahlil qilinib o‘rganiladi. Bu so‘z turkumlarini o‘quvchilar grammatik tushunchaning asosiy mazmunini anglay olishlari kerak. So‘z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma‘nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha ot so‘z turkumidagi so‘zlarning umumiy leksik ma‘nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, qush, hayvon) yer va osmonga oid narsalar



(quyosh, sayyoralar, daryo, tog‘), o‘simliklar (paxta, beda, gul)voqealar (yig‘in, majlis), o‘rin va vaqt (yoz, bahor, joy) nomlarini bildiradi. Otlarning grammatik belgilari otlar birlik va ko‘plikda qo‘llaniladi, egalik qo‘shimchalari bilan turgandi. Gapda gap bo‘laklari (aniqlovchi, hol, to‘ldiruvchi, ega, kesim) kabi vazifalarni bajaradi. Otning ma‘nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab shuning uchun ham ot haqidagi bilim o‘quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida shakllanib boriladi. Talim tizimida o‘quvchilarni bilim olishi birinchi o‘rinda turishini hamma yaxshi biladi. O‘quvchi o‘qituvchi bergan har bir bilimni yaxshi va mukammal o‘zlashtirishi uchun turli xil metodlarni qo‘llash zarur. Hozirgi vaqtda talim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. Faqatgina o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi bilan birgalikda o‘qituvchi ham faol bo‘lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi. Dars jarayonida bolalarni zeriktirib qo‘ymaslik uchun turli xil metodlardan foydalanish zarur. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta‘lim maqsadi, ta‘lim oluvchilar soni va imkoniyatlari, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e‘tiborga olinadi.

Interfaol metod deganda-talim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, talim jarayoning markazida talim oluvchi bo‘lgan metolar tushuniladi. Ona tili darsliklarida ham grafik ifodalaridan foydalaniladi. Masalan, 1-sinf "Ona tili" darsligida ayrim harflar imlosi katakchalar ifodasidan joy nomlari topib qo‘llashda, topishmoqning javobi o‘rnida belgi bildirgan so‘zlarni gap mazmuniga mos va o‘rinli qo‘llashga o‘rgatishda, gap mazmuniga mos harakatni bildirgan so‘zlarni qo‘yishda, narsa va harakatni bildirgan so‘zlardan gap mazmuniga mosini tanlashga o‘rgatishda to‘g‘ri chiziq ifodasidan foydalanilgan.

2-sinf "Ona tili" darsligida ayrim harflar imlosida grafik belgi sifatida nuqta belgisidan, krossvorddan, belgini, tartib va sanoqni, harakatni bildirgan, so‘zlarni gap mazmuniga mosini tanlab qo‘yishda uch nuqta belgisidan foydalanilgan.

3-sinfda "Ona tili" darsligida so‘z tarkibini o‘rganishda, otning ma‘no turlarini o‘rganishda. Gap bo‘laklarining bog‘lanishida grafik tasvirdan foydalanilgan.

4-sinf "Ona tili" darsligida ham shu kabi grafik tasvirlar qo‘llanilgan. Grafik tasvirlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mavhum tafakkurini o‘stirishda juda qo‘l keladi. Bundan tashqari dars jarayonida mavzuni mustahkamlash uchun o‘yinli metodlardan ham foydalanish zarur. O‘yinli metodlar o‘quvchilar uchun qiziqarli va ularda dars jarayonida zerikishni yuzaga keltirmaydi. Aar metodlar ijodiy xarakterda bo‘lsa, ular o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradi, aktivlashtiradi. Topshiriqlarni bajarishda o‘z kuchiga ishonchni paydo qiladi.



Misol uchun "Kim ko'p so'z tuzadi?" o'yini. Kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yozib qo'yiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirok etgan so'z tuzadilar. Bu o'yin kompyuter dasturiga ham kiritilishi mumkin.

1. Berilgan harflar ishtirokida otlar tuzib yozing
2. Berilgan harflar ishtirokida fe'llar tuzib yozing
3. Berilgan harflar ishtirokida ravishlar tuzib yozing
4. Berilgan harflar ishtirokida turli turkumga oid so'zlar tuzib yozing.

Kartochkadan namunalari:

X N M L G U O R P I O'

Tuzilgan so'zlar: Non, nok, ota, olma, tez, ikki, tok, aka, uka, bola, ona, kaklik, Borno va hokazo. Bu o'yin bajarilgach, Grammatik mavzug oid topshiriqlar beriladi. Masalan tuzgan so'zlar orqali gap tuzish. Ularga so'roq berish.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qitish savodxonligi darsligining o'tilishi katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning o'qib tushunishi, yozma va og'zaki nutqning shakllanishi, o'zlarining fikrini to'liq va erkin yetkazib berishga, ifodali o'qishga xizmat qiladi. Albatta bunday bilimlar boshlang'ich sinflardan davrlaridan o'zlashtirib borilishi kerak. Shuning uchun ham, biz, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z mutaxassisligimizni chuqur o'rganishimiz va ertangi yosh avlodga to'g'ri yo'l ko'rsatishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi - T. Noshir: 2009
2. Л.И.Рахматуллаева. Методика преподавания родного языка - Т.: Учебное пособие. Молия Иктисод, 2007
3. Т. G'afforov va boshqalar. Ona tili 1-sinf, T.: "Sharq", 2017-yil
4. Safo O. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.: O'qituvchi
5. Internet resurslari.